



FORMATION OF THE MEDIA-POLITICAL SYSTEM IN UZBEKISTAN AND ITS LEGAL FOUNDATIONS

Sherzod Yokubjonov

PhD Candidate

Namangan State University

E-mail: sherzodyoqubjonov@gmail.ru

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: mass media, media system, political communication, information policy, media freedom, transparency, digital transformation, civil society.

Received: 20.05.26

Accepted: 21.05.26

Published: 22.05.26

Abstract: This article analyzes the formation of the media-political system in Uzbekistan, its legal foundations, and current development trends. The role of mass media in political communication, reforms aimed at modernizing information policy, and legal mechanisms ensuring media freedom are examined. Comparative-political, institutional, and statistical analysis methods were used in the study. The article also explores digital transformation processes within the media system, transparency of state institutions, and the effectiveness of information services. The study identifies institutional characteristics and priority directions for the future development of Uzbekistan's media-political system.

O'ZBEKISTONDA MEDIA-SIYOSIY TIZIMNING SHAKLLANISHI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Sherzod Yoqubjonov

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: sherzodyoqubjonov@gmail.ru

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: OAV, media tizimi, siyosiy kommunikatsiya, axborot siyosati, media erkinligi, ochiqlik, raqamli transformatsiya, fuqarolik jamiyati.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda media-siyosiy tizimning shakllanish jarayonlari, uning huquqiy asoslari hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari

tahlil qilinadi. Ommaviy axborot vositalarining siyosiy kommunikatsiya tizimidagi oʻrni, axborot siyosatini modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlar va media erkinligini taʼminlovchi normativ-huquqiy mexanizmlar oʻrganilgan. Tadqiqot davomida qiyosiy-siyosiy, institutsional va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, media tizimining raqamli transformatsiyasi, davlat organlari faoliyatining ochiqligi hamda axborot xizmatlari samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Oʻzbekistonda media-siyosiy tizim rivojlanishining institutsional xususiyatlari va istiqboldagi ustuvor yoʻnalishlari aniqlangan.

ФОРМИРОВАНИЕ МЕДИА-ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЁ ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ

Шерзод Ёкубжонов

Докторант (PhD)

Наманганский государственный университет

E-mail: sherzodyoqubjonov@gmail.ru

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: СМИ, медиа-система, политическая коммуникация, информационная политика, свобода СМИ, открытость, цифровая трансформация, гражданское общество.

Аннотация: В статье анализируются процессы формирования медиа-политической системы Узбекистана, её правовые основы и современные тенденции развития. Исследуются роль средств массовой информации в системе политической коммуникации, реформы в сфере информационной политики и нормативно-правовые механизмы обеспечения свободы СМИ. В ходе исследования использованы сравнительно-политический, институциональный и статистический методы анализа. Также рассматриваются процессы цифровой трансформации медиа, открытость деятельности государственных органов и эффективность информационных служб. В результате исследования определены институциональные особенности и приоритетные направления дальнейшего

Kirish. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi oʻrni va taʼsirini yanada kuchaytirdi. Bugungi globallashtirish sharoitida media tizimi nafaqat axborot uzatish vositasi, balki siyosiy kommunikatsiya, jamoatchilik fikrini shakllantirish va davlat boshqaruvi samaradorligini taʼminlovchi muhim institut sifatida namoyon boʻlmoqda. Shu sababli ommaviy axborot vositalarining siyosiy jarayonlardagi oʻrni va media tizimining huquqiy asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1;115-118-b.].

Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda demokratik institutlarni shakllantirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligini taʼminlashga qaratilgan keng koʻlamli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, axborot sohasini modernizatsiya qilish, ommaviy axborot vositalari faoliyatini liberallashtirish va media erkinligini taʼminlash davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi [2;№ 439-II.].

Oʻzbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”gi Qonuni, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonuni hamda “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi toʻgʻrisida”gi Qonuni media faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirishda muhim rol oʻynadi [3;№OʻRQ-78.].

Shuningdek, soʻnggi yillarda davlat organlari huzurida axborot xizmatlarining tashkil etilishi, elektron hukumat tizimining rivojlanishi, internet nashrlar va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi media makonining transformatsiyasiga sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Bu esa davlat va jamiyat oʻrtasidagi kommunikativ aloqalarning yangi bosqichga koʻtarilishiga xizmat qildi.

Mazkur maqolaning maqsadi Oʻzbekistonda media-siyosiy tizimining shakllanish jarayonlari, uning normativ-huquqiy asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Media tizimi va siyosiy kommunikatsiya masalalari siyosatshunoslik, kommunikatsiya nazariyasi va jurnalistika yoʻnalishida faol tadqiq etilayotgan ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ommaviy axborot vositalarining demokratik jamiyatdagi oʻrni, siyosiy legitimlikni shakllantirishdagi roli va jamoatchilik fikriga taʼsiri keng oʻrganilgan.

Xususan, zamonaviy siyosiy kommunikatsiya nazariyalarida media tizimi davlat va fuqarolik jamiyati oʻrtasidagi asosiy kommunikativ vosita sifatida baholanadi. Shu bilan birga,

raqamli media va internet texnologiyalarining rivojlanishi an'anaviy OAV faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani qayd etiladi.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham O'zbekistonda axborot siyosati, media tizimi va OAV faoliyatining huquqiy asoslari o'rganilgan. Jumladan, Matkarimova axborot erkinligi va so'z erkinligini demokratik jamiyatning muhim sharti sifatida baholaydi [1]. Rasulov va Vafoyevalar tomonidan O'zbekiston media tizimidagi institutsional o'zgarishlar hamda mavjud muammolar tahlil qilingan [4;257-264-b.].

Shuningdek, ayrim xalqaro tadqiqot markazlari va tashkilotlari hisobotlarida O'zbekistonda media erkinligini ta'minlash, davlat organlari faoliyatining ochiqqligini oshirish hamda jurnalistlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan [5;32-p.]. Biroq ayrim tahlillarda media faoliyatining institutsional mustaqilligini yanada kuchaytirish va axborot siyosatini takomillashtirish zarurligi ham ta'kidlanadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda media-siyosiy tizimining rivojlanish tendensiyalari, raqamli kommunikatsiya va davlat-media munosabatlarining transformatsiyasi masalalari hali yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu jihatlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-siyosiy, institutsional, statistik va normativ-huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasining media va axborot sohasiga oid qonun hujjatlari, Prezident farmonlari va qarorlari, davlat dasturlari, xalqaro indekslar hamda ilmiy manbalar o'rganildi.

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy yondashuv asosida mustaqillikdan keyingi davrda O'zbekistonda media tizimining rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari sonining o'sish dinamikasi, internet nashrlarining rivojlanishi va axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligi statistik ma'lumotlar asosida baholandi.

Tahlil jarayonida institutsional yondashuv asosida davlat organlari, axborot xizmatlari va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar o'rganildi. Shu bilan birga, xalqaro media indekslari va hisobotlari qiyosiy tahlil qilinib, O'zbekistonning media sohasidagi o'zgarishlari mintaqaviy va xalqaro tendensiyalar bilan solishtirildi.

Mazkur tadqiqot doirasida media-siyosiy tizim rivojlanishining "institutsional ochiqlik va raqamli kommunikatsiya integratsiyasi" modeli konseptual yondashuv sifatida taklif etildi. Ushbu model davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi kommunikativ hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalari soni nisbatan kam bo‘lgan bo‘lsa, keyingi yillarda media makonining sezilarli kengayishi kuzatildi. 1991-yilda mamlakatda jami 395 ta OAV faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2016-yilda ushbu ko‘rsatkich 1514 taga yetdi. 2021-yilda esa OAV soni 1893 tani tashkil etdi [6.]. 2023-yil holatiga ko‘ra, mamlakatda 600 dan ortiq gazeta, 600 dan ziyod jurnal, o‘nlab tele va radiokanallar hamda yuzlab internet nashrlari faoliyat yuritmoqda. Bu media tizimining diversifikatsiyalashuvi va raqamli transformatsiyasi kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Yillar kesimida OAV lar soni:

1991 - 395

2016 - 1514

2021 - 1893

2023 - 2100 dan ortiq

Media tizimidagi institutsional o‘zgarishlar davlat organlari faoliyatining ochiqligi bilan ham uzviy bog‘liqdir. Xususan, 2018-yildan boshlab davlat organlari va tashkilotlarida axborot xizmatlari faoliyati takomillashtirildi hamda jamoatchilik bilan aloqalarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi [8;№125.]. 2019-yilda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining tashkil etilishi media sohasini muvofiqlashtirish va davlat-media munosabatlarini rivojlantirishda muhim institutsional qadam bo‘ldi [9;№PQ-4366]. Mazkur institut davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash, ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish va jurnalistlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan vazifalarni amalga oshirmoqda.

Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat xizmatlarini raqamlashtirish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish va interaktiv platformalarni kengaytirish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirildi [10;№PF-6079.]. Natijada davlat xizmatlarining tezkorligi oshdi, fuqarolarning axborot olish imkoniyatlari kengaydi va elektron kommunikatsiya tizimlari rivojlandi.

Bugungi kunda internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi media makoniga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, Telegram, YouTube, Facebook va boshqa platformalar aholining axborot olish manbalaridan biriga aylandi. Bu holat media tizimining interaktivligini kuchaytirish bilan birga, axborot xavfsizligi va media savodxonlik masalalarini ham dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Xalqaro indekslar tahliliga ko‘ra, O‘zbekistonda media erkinligini ta‘minlash borasida ayrim ijobiy siljishlar kuzatilmoqda [7.]. Ayrim xalqaro hisobotlarda jurnalistlar faoliyati uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va davlat organlari ochiqligining ortib borayotgani qayd etiladi. Shu

bilan birga, media tizimining institutsional mustaqilligini kuchaytirish, jurnalistlarning professional himoyasini ta'minlash va axborot siyosatini konseptual jihatdan takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Media tizimining samaradorligi nafaqat OAV sonining ortishi, balki axborotning sifati, tahliliy darajasi va professional standartlar bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, jurnalistlar malakasini oshirish, media ta'limini rivojlantirish hamda axborot bilan ishlash madaniyatini kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda media-siyosiy tizimning huquqiy va institutsional asoslari bosqichma-bosqich shakllanganini ko'rsatadi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar axborot sohasini modernizatsiya qilish, davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash va fuqarolarning axborot olish huquqini kengaytirishga xizmat qildi.

Bugungi kunda media tizimining raqamli transformatsiyasi davlat va jamiyat o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda.

Ayniqsa, internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar va elektron kommunikatsiya platformalarining rivojlanishi axborot almashinuvi tezligini oshirib, jamoatchilik faolligini kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, media tizimini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

media faoliyatining institutsional mustaqilligini kuchaytirish;

jurnalistlar va blogerlarning professional malakasini oshirish;

media savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish;

davlat axborot siyosatining yagona konseptual modelini ishlab chiqish;

raqamli media xavfsizligini mustahkamlash;

tanqidiy va analitik jurnalistikani qo'llab-quvvatlash;

davlat organlari va OAV o'rtasidagi ochiq kommunikatsiya mexanizmlarini takomillashtirish.

Umuman olganda, media-siyosiy tizimning samarali faoliyati demokratik institutlarni rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va davlat hamda jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Matkarimova J. Axborot va so'z erkinligi – demokratik jamiyatning muhim sharti // O'zbekistonda demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'lida: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Akademiya, 2012. – B. 115–118.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 12.12.2002. № 439-II // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir). 15.01.2007. № O‘RQ-78 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
4. Rasulov A.N., Vafojeva G.B. O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyati, o‘zgarish va muammolar // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, Issue 2. – P. 257–264.
5. Schmitz A. Uzbekistan’s Transformation: Strategies and Perspectives. – Berlin: SWP Research Paper, 2020. – 32 p.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ma’lumotlari.
7. rsf.org
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 15.02.2018. № 125.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. 27.06.2019. № PQ-4366.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 05.10.2020. № PF-6079.
11. swp-berlin.org.